

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
TA'LIM TIZIMIDAGI TENGSIZLIK MUAMMOLARINI
BARTARAF ETISH TA'LIM BERISHNI YO'LGA QO'YISHDA OLIS VA
CHEKKA HUDUDLARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH ISHLARI

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassis – Xamrayeva Gulshan Normurodovna

gulshan.khamrayeva@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi vaqtida ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalanish jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Bu o'z navbatida, mamlakatda modernizatsiya jarayonining tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ammo, bu sohaga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini joriy etish bo'yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi.

Kalit so'zi: ta'lim, inklyuziv ta'lim, muammolar, faoliyat, kadrlar tayyorlash, o'qish va o'qitish tizimi.

Annotation: Currently, the use of pedagogical innovations in the educational process is a global trend of world development. This, in turn, requires paying special attention to the systematic introduction of innovations into the field of education at the same time due to the rapid development of the modernization process in the country. However, the level of pedagogical scientific research on the introduction of new content, forms, methods and tools of teaching in this field cannot be considered sufficient at the moment.

Key words: education, inclusive education, problems, activities, personnel training, education and training system.

Ta'lim sohasidagi mavjud muommolar kamaytirishda ta'limning sifatini

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

oshirishda pedagoglar bilim va kasbiy mahoratining davr talablariga mosligi, o‘qitishda innovation ta’lim texnologiyalaridan oqilona foydalanishi, tashkil etilayotgan darslarning samaradorligi, ta’lim oluvchi yaxshi o‘zlashtirishi uchun har bir mavzuning pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llagan holda o‘tilishini ta’minlash talab etiladi. O‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limni amaliyatga joriy etish, ta’lim oluvchilarda egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olish, kasb tanlash, mustaqil ta’lim olish, o‘quv bilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalaridan biri[3].

Ta’lim sohasidagi islohotlar asosan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida olib borilmoqda , oldingidek ta’lim tizimida yodlashga asoslangan ta’lim emas mavzuning negizini tushungan o‘quvchining bilimi haqiqiy bilim ekanligi isbotlanib kelinmoqda. O‘quvchi va talaba yoshlар hozirda faqatgina yodlab emas o‘rgangan bilimlarini amlada qo‘llay olishlari eng asosiy maqsadimiz ekanligi va bunga erishish uchun harakat qilmoqdamiz. Buning uchun ixtisoslashtirilayotgan makatablar tashkil etilayotgani , xususiy maktablar tashkil etilishiga keng imkoniyat yaratilgani ham bejiz emas. STEAM ta’lim texnologiyasiga asoslanga holda ta’lim jarayonlarini tashkil etishga katta e’tibor berilmoqda. Yurtimizda ta’lim tizimida yuqori darajada sifatli ta’limga e’tibor qaratayotgan vaqtimizda ta’lim sohasidagi mavjud muommolar bunga to’siq bo’lmoqda. Misol qilib quyidagilarni aytishimiz mumkin:

- ta’lim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashda hamda iqtidorli yoshlarning kreativ g‘oyalarni amaliyatga tatbiq etilishida tizimli va innovasioln faoliyat to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi;

- pedagoglar tomonidan ta’lim oluvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilmaganligi;

- pedagoglar tomonidan innovation pedagogik texnologiya va metodlarini amaliyatga keng joriy etilmasligi;

- ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi;

- ma’lumotlarni takrorlash bilan cheklanib qolayotganligi, ularning talab

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

darajasida emasligi;

- o‘quv dasturlari strukturasini yangilash va o‘zgartirish zaruriyati;
- o‘quv jarayonini loyihalash mexanizmlarini kiritish zaruriyati;
- pedagogik va axborot texnologiyalarining hamda mustaqil ta’limning to‘g‘ri talqin etilmaganligi;
- maktab o’qituvchilarining ota-onalari bilan to‘g‘ri muloqot o’rnatish masalalari;
- ta’lim va tarbiya jarayonining barabar olib borilishidagi mavjud muammolar;
- moddiy texnik bazaning yetarli emasligi;
- o‘quv jarayonini loyihalash mexanizmlarini kiritish zaruriyati;
- pedagogik va axborot texnologiyalarining hamda mustaqil ta’limning to‘g‘ri talqin etilmaganligi;
- maktab o’qituvchilarining ota-onalari bilan to‘g‘ri muloqot o’rnatish masalalari;
- ta’lim va tarbiya jarayonining birgalikda olib borilishidagi mavjud muammolar;
- yosh mutaxassis kadrlardagi tajriba yetishmasligi;
- maktab o‘qituvchilaridagi davomat masalalari kabi bir qator muammolar ko‘rib chiqilmoqda va ularni bartaraf etish maqsadida turli qarorlar ishlab chiqilmoqda.[4]

Maktab o‘qituvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq:

-jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag'batlantirish;

-o‘qituvchilarning yoshlarga ta’lim va tarbiya berishdagi mas’uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

-umumiyl o‘rta ta’lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg‘or maktab direktori va namunali o‘qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish;

-umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yo‘nalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, bola ta’lim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning o‘rnini oshirish;

-o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish kabi ishlar olib borilmoqda.[5]

Davlat kelajagi yoshlar qo’lida faqatgina ilmli, salohiyatli yoshlargina kelajagi porloq yurtni yarata oladilar , har qanday sohada yetakchi o’ringa chiqa oladilar , yurtimiz bayrog’ini ko’klarga ko’tarib dunyo arenasiga olib chiqa oladilar. Yoshlarda sifatli va asosli, ularni faqatgina yoddan aytib bera oladigan emas , amalda qo’llay oladigan ta’lim bersakgina bu bizga samara beradi. Ta’lim sifati, uning maqsad va vazifalarini, mazmunini, shakl, metod, texnologiya va vositalarini to‘g‘ri tanlash bunda juda ham muhim ahamiyatga ega . Ta’lim beruvchi har bir pedagog o’z kasbibi sevuvchi hamda yetarli bilim, ko’nikmalarga ega bo’lishi kerak. Har bir mashg‘ulot ta’lim oluvchilarda o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga, o‘quv adabiyotlaridan kerakli axborotlarni mustaqil topishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Mashg‘ulot sifati o‘qitilayotgan, tahlil qilinayotgan mavzuga pedagogning mas’uliyat bilan yondashishi, uning mazmunini ta’lim oluvchilarga yetkazishga qaratilgan mahorati, mashg‘ulotni bugungi kun talabi asosida tashkil etish va boshqarish uslubiy faoliyati bilan belgilanadi. Pedagog mavzuni yoritish uchun uning muhim bo‘lgan nazariya bilan asoslanganligi, fikrlarni mantiqan bog‘langanligini tushuntira olsa, ma’lum maqsadga erishgan bo‘ladi. Buning uchun zamonaviy o‘qitish texnologiyalari imkoniyatlari va usullaridan foydalanish zarur [6].

- 1.Ёзиева, У., & Абдиева, Ф. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari. Общество и инновации, 2(11/S), 111-114.
- 2.Abdieva, F. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ДИРЕКТОРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ МАДАНИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Science and innovation, 1(B8), 2154-2156.
- 3.qizi Abdiyeva, F. F. (2023, January). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV MADANIYATINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 397-400).
- 4.Abdieva, F. (2022). IMPROVING THE MANAGEMENT CULTURE OF DIRECTORS OF PRE-SCHOOL EDUCATION ORGANIZATIONS. Science and Innovation, 1(8), 2154-2156.
- 5.Kuchkarov, D. (2022-yil 3-noyabr). Yangi O'zbekiston, yangi boshqaruv. O'zbekiston global bozorlari bo'yicha maxsus ma'ruza, 3-bet.
- 6.Kun.uz (2020-yil 11-mart). O'zbekiston maktablarga kirishdan oldin bir yillik majburiy tayyorgarlik kurslarini joriy etadi. Kun.uz saytidan olingan: <https://kun.uz/en/news/2020/03/11/uzbekistan-to-introduce-one-year-mandatory-preparation-courses-for-school>.
- 7.MyGov (2023). Mening hukumatim, Davlat xizmatlari interaktiv portalı: <https://my.gov.uz/uz>.
- 8.President.uz (2023-yil). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti: <https://president.uz/uz>.
- 9.O'zbekiston Respublikasi (2019-yil 29-aprel). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son farmoni. LexUZ Onlinedan olingan: <https://lex.uz/docs/4383>.
- 10.O'zbekiston Respublikasi (2019-yil 22-oktyabr). O'zbekiston

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Respublikasining 2019- yil 16-dekabrdagi O'RQ-595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida"gi qonuni. Xalqaro mehnat assotsiatsiyasidan olingan: <https://www.ilo.org/dyn/natlex/docs/ELECTRONIC/114171/143330/F988034184/UZB-114171.pdf>.

11.O‘zbekiston Respublikasi (2022-yil 23-yanvar). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. LexUZ Onlinedan olingan: <https://lex.uz/ru/docs/5841077>.

12.Davlat statistika qo‘mitasi (2023-y.). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston statistika agentligidan olingan: <https://stat.uz/en/>.

13.BMTning O‘zbekistondagi faoliyati. (2019-y.). O‘zbekistonda nogiron bolalar va kattalar uchun vaziyatni tahlil qilish. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, O‘zbekiston.

14.UNICEF va XTV (2019-y.). O‘zbekiston boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilarni o‘qitish: natijalar, muammolar va imkoniyatlar: O‘zbekiston ta’lim yutuqlari milliy tadqiqotining qisqacha mazmuni, IV sinf, 2018. UNICEF.

15.UNICEF (2017-y.) O‘zbekistonda ovqatlanishni tadqiq qilish. UNICEF va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi.